

**“YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YOSH AVLODNING
IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY JARAYONLARDA
TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Sultanova Jasmina Gafur qizi

Ergasheva Robiya Avaz qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San'atshunoslik va Amaliy san'at fakulteti 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada yoshlarning mamlakat rivojida asosiy ijtimoiy-siyosiy faol subyekt sifatidagi roli, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokchanligi va iqtisodiy soxadagi salmog‘i o‘rganilgan. Shuningdek, yoshlar siyosati soxasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar ishlari agentligi” va “Yoshlar daftari” kabi institutlarning yosh avlodning jamiyatdagi maqomini mustahkamlashdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Maqola yoshlar manfaatlarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi milliy davlat siyosati mehanizmlarini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat, jamiyat, Prezident, yoshlar, islohotlar, Yangi O‘zbekiston, strategiya, ta‘lim, qonun ustuvorligi, inson kapitali, iqtisodiyot, axborot texnologiyalar, tashabbus, yosh avlod, ijtimoiy jarayonlar, siyosiy faollik, iqtisodiy rivojlanish, davlat siyosati, Yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar daftari

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar “Yangi O‘zbekiston” tamoiili asosida yurtinizni jadal taraqqiy ettirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, shu jumladan, yoshlarning hayotda munosib o‘rin egallashiga qaratilgan. Yosh avlod - har qanday jamiyatning ilmiy, iqtisodiy va ma‘naviy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati jadal rivojlanmoqda va mamlakatimiz rahbariyati tommonidan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Har bir davlat o‘z kelajagini, taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida jamiyatga kerakli, barkamol shaxslarni tarbiyalashga intiladi. Shu ma‘noda, Yangi O‘zbekistonda ham zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, yurti ravnaqiga befarq bo‘lmagan, yuksak ahloqiy-ma‘naviy, kasbiy va huquqiy bilimlarga ega yosh avlodni voyaga yetqazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Shu jumladan, Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar - bu, avvalo, inson manfaatlariga hizmat qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat barpo

etishga qaratilgan yangi davlat boshqaruvi modelidir. Bunda esa yoshlarning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Eng muhimi, biz ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan davlat-jamiat-siyosat tamoyilini o‘zgartirdik” degan so‘zlari bugungi kunda davlat siyosatining markazida aynan inson, xususan, yoshlar turayotganini anglatadi.

Ya’ni, endilikda davlat organlari va jamoat insitutlari insonni, uning ehtiyoj va manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda ish yuritishi kerak. Bu esa yoshlarga katta ishonch bildirayotgani, ularning faol ishtiroksiz yangilanish jarayonlarini amalga oshirish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni nafaqat kelajakdagi ma’suliyat bilan, balki bugungi kundagi islohotlardagi ishtirok bilan ham belgilanadi. Davlatimizda yoshlarga tegishli qarorlar qabul qilishda yoshlarning o‘zlari faol ishtirok etishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar - kelajagimiz” dasturi kabi loyihalarni tilga olish mumkin.

Ayniqsa, boshqaruv tizimidagi ochiqlik, fuqarolik jamiyati insitutlarining rivoji, onlayn murojaatlar tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning davlat ishlarida ishtirok etish imkoniyatlari ortgani - yosh avlodga bo‘lgan ishonchning amaliy ifodasidir. Bu holat yoshlar faqat ijrochi yoki kuzatuvchi emas, balki jamiyat ravnaqini ta’minlovchi faol subyekt sifatida ko‘rilayotganini tasdiqlaydi. Ular mamlakat taraqqiyotida faol qatnashmoqda, innovatsion g‘oya vatashabbuslari bilan yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda, siyosiy-huquqiy jarayonlarda ishtirok etmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash, uni jamiyatga va davlat munosabatlarining markaziy nuqtasiga aylantirishga qaratilgan. Yangi taxrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Inson - jamiyat - davlat” tamoyili asosiy huquqiy prinsip sifatida mustahkamlanadi. Bu esa davlat va jamiyat faoliyatining barcha soxalarida inson manfaatlarining ustuvorligini ta’minlashni anglatadi. Xususan “Davlat - insonlar uchun” degan xalqchil g‘oya hayotimizda izchil ravishda qaror topib bormoqda. Inson huquqlari va erkinliklari, uning munosib turmush kechirish, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish, adolatli ish haqqiga ega bo‘lish, qonuniy manfaatlarini ta’minlanishi - barchasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Shu bilan birga, har bir davlatning kelajak poydevori hisoblangan yoshlarga bo‘lgan e’tibor mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining markazida turibdi. Zamonaviy O‘zbekistonda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning bilim olishi, mehnat bozorida munosib o‘rin egallashi, xalqaro maydonda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishi uchun barcha shart-sharoitlar

yaratilmoqda. Ayniqsa, millatidan, tili yoki dinidan qat'i nazar, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlangan.

Shu bilan birgalikda yoshlar siyosatining izchilligi va samaradorligi davlatning intellektual, iqtisodiy, ma'naviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda yoshlar siyosati alohida davlat strategiyasi darajasiga ko'tarilib, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" da ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Yoshlar siyosatidagi bu yondashuv mamlakat taraqqiyotining barcha jabhalarida yosh avlodning faol ishtirokiga keng yo'l ochmoqda. Jumladan, ta'lim, fan, innovatsiya, ish bilan bandlik, tadbirkorlik, san'at, sport, axborot texnologiyalari va siyosiy jarayonlarda yoshlarning imkoniyatlariva ishtiroki bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" ning 3-ustuvor yo'nalishi - "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish" deb nomlangan bo'lib, u yoshlar uchun qulay ijtimoiy muhit yaratish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishga qaratilgan, Ushbu strategiya doirasida: yoshlarga sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, kasb-xunar va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlarning bandligini ta'minlash, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy tarbiyani mustahkamlashga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilingan "Yoshlar - kelajagimiz" dasturi, "Yoshlar daftari", Yoshlar ishlari agentligi faoliyati, Yoshlar parlamenti, 5 muhim tashabbus va boshqa tashabbuslar yoshlar siyosatini amalga oshirishning institutsional mexanizmlariga aylandi. Bundan tashqari, yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida mahallalar, ta'lim muassasalari, ish joylari va mahalliy hokimiyat organlarida yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutasaddilar tayinlanmoqda. Bu esa tizimli va maqsadli ishlarni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu - yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Bessh muhim tashabbus dastlab Toshkent viloyatining Bo'ka tumani va Toshkent shahrining Uchtepa tumanida tajriba sifatida joriy etildi,- dezdi Yoshlar ishlari agentligi Markaziy apparatning besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarma boshlig'i Mansur Masharipov. -42 ta tuman va shaharlarning 169 ta olis va og'ir ahvoldagi mahalla fuqarolar yig'inlarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek, birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha yurtimizdagi mavjud 800dan ortiq madaniyat markazlarida 4522ta

to'garak faoliyati yo'lga qo'yilib ularga 1762 ta musiqa jihozi yetkazib berilgan. Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan 36503 ta to'garakka 1million nafardan ortiq yoshlar qamrab olingan. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at va musiqa yo'nalishidagi 36503ta to'garaklarga 1,1 mln. nafar (18%) o'quvchi-yoshlar jalb qilingan. 3mingdan ortiq musiqa jihozlari yetkazib berilgan. Shu bilan birga matbuot anjumanida qolgan 4 yo'nalish yuzasidan ham qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tildi. Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo'yicha umumta'lim maktablarida 10 ta sport turi bo'yicha 49 196 ta sport to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilib, 1,2 mln nafar o'quvchi-yoshlar muntazan shug'ullanib kelishayotganligi hamda 254 ta nafar Bolalar va o'smirlar sport maktablariga 328 875 nafar, 54 ta Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga 33 438 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilinganligi haqida ma'lumotlar aytib o'tildi. Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish bo'yicha 72 ta "Raqamli texnologiyalar o'quv markazi" faoliyati yo'lga qo'yilganligi ham yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ma'rifat karvoni" tadbirlari orasida 3 mlndan ortiq kitoblar yoshlarga yetkazib berildi, "Yoshlar kutubonasi" rukni ostida 59 ta nomdagi 590ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari kutubxonalarga tarqatildi. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon"tanloviga 2017-2019-yillar davomida 2 mln 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 8 nafar tanlov g'oliblari bo'lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg'asi "Spark" avtomoshinasi sovrindori bo'lganligi ham yoshlarimizni kitobxxomlik ruhiga yana qaytganini isbotidir. "Yosh kitobxon" tanlovining 2020-yilgi saralash bosqichlari 23-25-dekabr kunlari barcha tuman(shahar)larda o'tkazilishi to'g'risida ham ma'lumot berildi va bu jarayon online tarzda amalga oshirilishi aytib o'tildi. Beshinchi tashabbus - xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashlik etish yo'nalishi ham eng dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib bugungi kunga kelib Mahalla va oliani qo'llab-quvvatlash vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan sohaga oid tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi hususida qizg'in muzokaralar bo'ldi. . Ilk marotaba yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tenglik va ular bandligini ta'minlash maqsadida "Qizlar ovozi" platformasi yaratildi, - deydi Mahalla va olialarni qo'llab-quvvatlash vazirligi Oliaviy qadriyatlarini mustahkamlash boshqarmasi boshlig'i Mukarram Nurmatova. -Forum doirasida mamlakat istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish orqali jamiyatda gender tengligini ta'minlash, shuningdek demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish maqsadida joylarda "Qizlar ovozi" klubi yashkil etildi. O'tgan davr

mobaynida xotin-qizlar uchun jami 170 mingga yaqin ish o'rni yaratildi. Tijorat banklari va xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga 4,9 trillion so'm kreditlar ajratildi. Hozirgi kunda respublikamizda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarning soni 3 596 406 nafarni tashkil qilmoqda. Joriy yilda 76,2 mlrd. so'm imtiyozli mablag'lar evaziga 76 198 nafar yosh xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi, shuningdek, 15 935 nafar yosh xotin-qizlar kasb-hunarga o'rgatildi. Har bir tashabbus va uning yo'nalishlari bo'yicha, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida shu yo'nalishlarga ixtisoslashtirilgan tadbir, tanlov va olimpiadalar o'tkazildi. Bu orqali yoshlarni ar jabhada o'z imkoniyat va iqtidorlarini ko'rsatishga imkon yaratadi. Nafaqat yoshlar balki oliaviy hamda nafaqadagi keksalarga ham keng ko'lamdagi imkoniyatlar eshigi ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy majlisining Senati va qonunchilik palatasiga navbatdagi murojaatnomasida ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!" Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'ldan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha soxalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, tashabbuslarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, jamiyatni yangi yuksakliklarga olib borish uchun muhimdir. Shuningdek, mamlakatimizda 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilingan. Ushbu g'oya bo'yicha esa ko'plab ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borilmoqda. Ilm-ma'rifat va kitobxonlikka bo'lgan katta qiziqish va e'tibor hozirgi kunda yosh oilalar, talaba yoshlar hatto maktabgacha boshlang'ich ta'lim muassasalarida ham keng targ'ib qilinmoqda. So'nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar hech bir sohanin chetlab o'tayotgani yo'q. Xususan yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularni ijtimoiy faolligini oshirishga, ilmiy-ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan loyihalar, tadbirkorlikka yo'naltirishga ko'maklashadigan dasturlarni ko'rish mumkin. Hozirgi kunda keng faoliyat yuritib kelayotgan yoshlar ittifoqi ham bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Ilk bora ushbu tashkilot, 1924-yilda Butunittifoq Leninchi Kommunistik Yoshlar ittifoqi O'zSSR boshqarmasi sifatida tashkil etilgan. Keyinchalik, 1991-yilda O'zbekiston Yoshlar ittifoqiga aylantirilgan. 1996-yil aprel oyida esa "Kamolot" jamg'armasiga, 2001 yilda esa "Kamolot" ijtimoiy harakatiga o'zgartirildi. 2017-yilda esa yana O'zbekiston yoshlar itrifoqiga aylantilib, 2020-yilda esa agentlik sifatida qayta tashkil etildi. Oradan ikki yil o'tgach, 2022-yil 30-dekabrda Yoshlar ishlari agentligi O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi bilan birlashtirilib, O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil etildi. 2024-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosativa sport vazirligi qaytadan Sport vazirligiga aylantirildi. Yoshlar ishlari agentligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazildi. Shu qaror asosida juda ko‘plab ishlar olib borildi. Yoshlar ittifoqining asosiy vazifalari: Prezidentimizning besh tashabbus loyihasi doirasida yoshlarimizni bo‘sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish, ularni qadimda qurilgan qadamjolarga va muzey hamda eksponatlarga, tarixiy binolarga tashriflar buyurishini ta‘minlash shu bilan birgalikda O‘zbekiston bo‘ylab sayohatlar uyushtirish va yoshlarni chet tillarini o‘rganishga, kitobxonlikga qiziqtirish maqsadida turli to‘garaklar tashkil etib, sport soxalarida ham jahon chempionatlariga chiqishi va O‘zbekistonimizni butun dunyoga tanitishi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda imkoniyati cheklangan, yoshlar temir daftariga kiritilgan fuqorolarga moddiy hamda ma‘naviy tarzda yordam ko‘rsatiladi. Yoshlarni o‘z qiziqishlari, orttirgan bilimi va iqtidorlariga tayangan holda hodim sifatida ish bilan ta‘minlash chorasini tashkil etadi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqot qildi. Videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora tadbirlari muhokama etildi. Davlatimiz rahbari so‘zining boshida bu uchrashuvdan mamnun ekanini takidlab, yoshlarni xalqimizning oltin fondi deb atadi. Shu bilan bir qatorda juda ko‘p yoshlarga doir yangiliklar ochilib, ta‘lim, tadbirkorlik, kreativ iqtisodiyot va boshqa masalalar ko‘rib chiqildi. Kambag‘allikdan chiqishning eng samarali yechimi ham – bu ta‘limga bog‘liq ekanligini takidlab o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari sifatida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-213-sonli qarorigamuvofiq muddatli harbiy xizmatni o‘tab, to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan. Talabalarga bir qator imtiyozlar tashkil etildi. Shu bois ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan oilalarning farzandlariga foizsiz ta‘lim krediti, qo‘shimcha grant va to‘lov shartnoma asosida qabul qilingan talabalarga bir qator imtiyozlar tashkil etildi. Bilimga chanqoq, lekin oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan yoshlarni xorijda o‘qitish bo‘yicha yangi tizim- Yorqin kelajak loyihasi joriy etildi. Bilimli Yoshlar dunyoning “Top-100” oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab berilishi ta‘kidlab o‘tildi. Chet elda tahsil olib kelgan talabalar Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga qabul qilindi. Yig‘ilishda yosh avlodga milliy ruhiyatni shakllantirish, g‘oyaviy xurujlar va og‘ir bolalarga alohida mehr-e‘tibor ko‘rsatish, hayotda o‘rnini topishiga ko‘maklashish zarurligi aytiladi. Muloqotda so‘zga chiqqanlar mazkur reja va orzu-intilishlariga rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lishini tasdiqlashdi. Davlatimiz rahbari yoshlarning taklif va murojaatlarini inobatga olgan holda ma‘qullab, ularni har doim qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini ma‘lum qildi. Prezidentimizning bizga berilayotgan bu imkoniyatlaridan oqilona foydalanilganholda nafaqat O‘rta osiyo balki butun jahonga tanitish bu bizning eng oliy maqsadlarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar nafaqat ijtimoiy jarayonlarning obekti, balki jamiyatning faol va tashabbuskor subektlari sifatida shakllanmoqda. Bu tendensiya mamlakatda barqaror, demokratik va insonparvar fuqorolik jamiyatini barpo etish jarayonida yosh avlod hal qiluvchi kuchga aylanayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining keng imkoniyatlari yoshlar uchun o‘z fuqorolik pozitsiyalarini ifoda etish, ishtirok etish, o‘z taklif va tashabbuslarini amalga oshirishda samarali platformalarga aylanmoqda. Shunigdek, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqorolik jamiyati institutlari o‘rtasida yoshlar bilan muloqot va hamkorlik mexanizmlarining takomillashib borishi, yoshlarning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv mamlakatda biimli, tashabbuskor va ma’suliyatli yosh avlodni shakllantirish, ularni intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik maqsadlarni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib hizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. – “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – b[5-20]
2. Mirziyoyev Sh.M Yangi O‘zbekiston – yangi imkoniyatlar va istiqbollar yurti. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020.
3. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. - b[6-30]
4. “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi. – Toshkent: Vazirlar Maxkamasi, 2018 yil 27 iyun, № 409.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir). – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2023.

Internet manbalar:

6. <https://lex.uz/docs/-4725554>
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7872>
8. <https://kun.uz/45802526>
9. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti – www.yoshlar.gov.uz